

2-TOM, 5-SON

MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARI VA AHOLINING IJTIMOIY
MUHOFAZASI

Xolmanova Oyro'zi Akmal qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar :**(PhD) Abbasova Maftuna Subxonovna**
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada BMT tomonidan qabul qilingan "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" va ijtimoiy muhofaza borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, farovonlik, inson qadr-qimmati, insonning qadr topishi va ma'naviy kamol topishi, yurtimizda yoshlarning sog'lom, barkamol, sof insoniy fazilatlariga ega bo'lgan holda voyaga yetishi va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan keng ko'lamlı o'zgarishlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Mingyillik rivojlanish maqsadlari, BMT, inson huquqlari, ijtimoiy muhofaza, kuchli ijtimoiy siyosat.

Annotation: In this article, the "Millennium Development Goals" adopted by the UN and the reforms implemented in our country in terms of social protection, welfare, human dignity, human dignity and spiritual maturity, the healthy, well-rounded and pure human qualities of the youth in our country coming of age and the wide-scale changes in social spheres are described.

Keywords: *Millennium Development Goals, UN, human rights, social protection, strong social policy.*

KIRISH

Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari – bu jahon yetakchilarining qashshoqlik darajasini pasaytirish va kishilar farovonligini oshirish kabi global masalalar bo'yicha o'zaro kelishib olgan muhim vazifalaridir. Mazkur vazifalar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan hamda aniq muddat, vazifa va ko'rsatkichlarni talab etuvchi sakkiz maqsadni o'z ichiga oladi. Ularga 2015- yilgacha erishish lozimligi kelishib olingan. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining mazmun-mohiyati shundan iboratki, u insonlarning turmush sharoitini yaxshilanishi, onalar va bolalarning sog'lomlik darajasini oshirishi, ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarni himoya qilishdir.

Tahlil na natijalar



2-TOM, 5-SON

2000-yilning sentabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi e'lon qilindi. 189 mamlakat tomonidan qabul qilingan ushbu Deklaratsiyada davlatlar o'z zimmasiga qashshoqlikka barham berish uchun yangi global sheriklikni yo'lga qo'yish majburiyatini oldilar. Shuningdek, 2015- yilga borib erishilishi kerak bo'lgan boshqa maqsadlar ham belgilandi. Ular Mingyillik rivojlanish maqsadlari nomini oldi. Rivojlanish sohasidagi maqsadlar BMT tomonidan qator yillar davomida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarning bitimlari va rezolyustiyalari asosida ishlab chiqildi. Ushbu maqsadlar 1996-yilda "Rivojlanish sohasidagi xalqaro maqsadlar" sifatida shakllantirilgan edi. Shundan keyin bu maqsadlarni takomillashtirish davom ettirildi. Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida insonni global rivojlantirish va inson xavfsizligini ta'minlashga erishish uchun umumiy harakat rejasi o'z ifodasini topdi. Shu bilan bir qatorda mazkur maqsadlarda ko'zda tutilgan hal qiluvchi yo'nalishlar bo'yicha jahonda erishilgan muvaffaqiyatlarni o'lchash va ular monitoringini o'tkazishning miqdor mezonlari taklif etildi. Mingyillik rivojlanish maqsadlari 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko'rsatkichdan iborat. Mazkur vazifalarining aksariyati 1990-yillarda jahonda tarkib topgan ahvolni hisobga olgan holda 2015-yilga qadar hal qilinishi rejalandi. Mingyillik rivojlanish global maqsadlari doirasida mamlakatlar o'z milliy muammolarini hal etishga qaratilgan maqsadlarini belgilab olishlari mumkin edi. Ayni paytda Mingyillik rivojlanish maqsadlari faqat rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidagina emas, shuningdek, rivojlangan davlatlar tomonidan ham aniq choralar ko'rilishini talab etadi. Rivojlangan davlatlar belgilangan global maqsadlarga erishishga o'z hissalarini qo'shishlari ko'zda tutilgan. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining monitoringi umuman BMT tizimi bo'yicha ham, shuningdek, ayri davlatlar darajasida ham amalga oshiriladi. Umumiy darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi BMTning Bosh Assambleyalarida Mingyillik rivojlanish maqsadlari ayrim vazifalarining bajarilishi to'g'risida har yili hisob berishi shart. Mingyillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi hisobot mamlakatlar tomonidan har 5 yilda bir marta taqdim etiladi. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining dastlabki yetti maqsadi birbirini o'zaro to'ldiradi hamda kambag'allikning barcha ko'rinishlarini kamaytirishga qaratilgan. Mazkur muammolarga ochlik, tirikchilik uchun mablag'ning yetishmasligi, ta'lim va sog'liqni saqlash darajasining pastligi, erkak va ayollarning tengsizligi hamda atrof muhit ahvolining yomonlashishi kiradi. Ushbu har bir maqsad o'zicha muhim bo'lishiga qaramasdan, ular jamlanma holda kambag'allik muammosini hal etishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. O'ta qashshoqlikka va ochlikka barham berish;
2. Umumiy boshlang'ich ta'limga erishish;



2-TOM, 5-SON

3. Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
4. Bolalar o'limini kamaytirish;
5. Onalar salomatligini yaxshilash;
6. OIV/OITSGa, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish;
7. Ekologik barqarorlikni ta'minlash;
8. Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni kuchaytirish.

Sakkizinchi maqsad dastlabki yetti maqsadga erishish vositasidir. U birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlar oldiga vazifalar qo'yib, ularni kambag'al mamlakatlar qarzlari kamaytirish hamda ularning rivojlanishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rishga da'vat etadi.

O'zbekiston "Mingyillik Ma'ruzasi"ni imzolagan mamlakat sifatida yuqorida tilga olingan sakkizta maqsadga erishish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarib kelmoqda. Mamlakatimiz hukumati bu maqsadlarning milliy rivojlanishda muhimligi hamda dolzarbligini e'tirof etgan holda donor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yurtimizga xos bo'lgan sakkizta milliy vazifani ishlab chiqqan.

Mingyillik rivojlanishning sakkiz maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1-maqsad: Kam ta'minlanganlik va qoniqarsiz oziqlanishni qisqartirish;
- 2-maqsad: Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim maktablarda ta'lim sifatini oshirish;
- 3-maqsad: Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
- 4-maqsad: Bolalar o'limini qisqartirish;
- 5-maqsad: Onalar salomatligini yaxshilash;
- 6-maqsad: OIV/OITSGa, sil kasalligiga va bezgakka qarshi kurash;
- 7-maqsad: Ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- 8-maqsad: O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat o'rtasida rivojlanish maqsadidagi global hamkorlik.

Ijtimoiy muhofaza bu - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuadir. Hozirgi paytda mamlakatimizda , aholi va jamiyatning har bir a'zosining turmush

sharoitlarini yaxshilash, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Xulosa



2-TOM, 5-SON

Xulosa qilib aytganda, aholini ijtimoiy muhofaza qilish nafaqat o'zining dolzarbliligi bilan, balki huquqiy va tarixiylik xususiyatlari bilan ham xarakterli hisoblanadi. Aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish qadimiy ahamiyat kasb etganligi uchun bu masala jahon hamjamiyatining chuqur va puxta izlanishlar talab qiladigan masalalaridan biriga aylangan. Jismoniy nuqsoni bo'lgan shaxslar yoki moddiy yordamga muhtoj aholining kam ta'minlangan qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash har bir xalqning o'z ijtimoiy muhiti, shuningdek, mamlakatlarning rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

- 1.Ahmedov I. Muhammadiyev H. "Mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy – himoya siyosatining tarixiy ildizlari" .- Toshkent : "Tafakkur qanoti".2014.-B
- 2.Vaxabov A. Shirzatovna Sh. Baxtiyorov B. "Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish" darslik . Toshkent 2020
- 3."Yangi O'zbekiston "gazetasining 2023-yil 16-fevral soni
- 4.Yo'ldoshev Q. ,Valiyev Sh. "Avestoning falsafiy va iqtisodiy g'oyalari " T:"Moliya" , 2003 yil,23-b .

